

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnalni bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d., prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririylashriyot kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rınboyev I.

Tahririylashriyot manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Sh.Abdug'affor

XX asr boshlarida Farg'ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Ta'llimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarida O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining

o'qitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yo'lidagi o'ziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qataq'on siyosati qurboni bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yo'Ichiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniyat (Farg'ona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar

(Farg'ona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



УО'К: 373.3/.5:94(575)"1920/1939"

**XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX FANINING
O'QITILISHI MASALALARI**

**ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ В ШКОЛАХ УЗБЕКСКОЙ ССР В 20-30-Е ГГ.
XX ВЕКА**

**PROBLEMS OF TEACHING HISTORY IN SCHOOLS OF THE UZBEK SSR IN THE 20-
30S. XX CENTURY**

Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich¹

¹Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи professori v. b., tarix fanlari nomzodi

Qodirova Ra'no Mamirjonovna²

²Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng o'ziga qarashli hududlarda, xususan O'zbekiston SSR da maorif tizimini yangidan shakllantirishda amalga oshirgan islohotlari, yuzaga chiqqan kamchiliklar borasida fikr yuritilgan. Maorif tizimi asosan madaniy inqilob davrida qaytadan qurilgan. Lekin sovetlarning bu davrdagi asosiy maqsadi partiya uchun hizmat qiladigan kadrlar tayyorlab chiqarishga qaratilgan. Mazkur maqolada aynan sovet hokimiyatining maktablarda tarix ta'lими o'qitishda o'z g'oyalarini qanday tadbiq qilganligi haqida ayrim ma'lumotlar berib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются реформы в формировании новой системы образования, осуществленные большевиками на подконтрольных им территориях, в частности в Узбекской ССР, а также недостатки, возникшие в ходе этих реформ. Система образования была в значительной степени перестроена во время Культурной революции. Главной целью советской власти в этот период была подготовка кадров, служащих в интересах партии. В данной статье представлены некоторые сведения о том, как советская власть реализовывала свои идеи при преподавании истории в школах.

Abstract

This article examines the reforms in the formation of a new education system carried out by the Bolsheviks in the territories under their control, in particular in the Uzbek SSR, as well as the shortcomings that arose during these reforms. The education system was largely overhauled during the Cultural Revolution. The main goal of the Soviet government during this period was the training of personnel serving in the interests of the party. This article provides some information about how the Soviet government implemented its ideas when teaching history in schools.

Kalit so'z: Oktabr inqilobi, Munavvar Qori Abdurashidxonov, M.M. Pistrak, M. Asimov, VKP(b) MK, SSSR Xalq Komissarlari Kengashi, tarix va jamiyatshunoslik, B. Leviton va M. Ovsyannikov, Akmal Ikromov

Ключевые слова: Октябрьская революция, Мунаевар Кори Абдурашидханов, М.М. Пистрак, М. Азимов, МК ВКП(б), СНК СССР, история и обществознание, Б. Левитон и М. Овсянников, Акмаль Икромов

Key word: October Revolution, Munavvar Qori Abdurashidkhonov, M.M. Pistrak, M. Asimov, VKP(b) MK, Council of People's Commissars of the USSR, history and social studies, B. Leviton and M. Ovsyannikov, Akmal Ikromov

KIRISH

Maktab har doim eng konservativ ijtimoiy institutlardan biri bo'lib kelgan va tarix ta'lim tizimi uning elementi bo'lib, jamiyatning qo'shimcha barqarorligini, ko'pchilik fuqarolar tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar va ideallar davomiyligini ta'minlagan.

XX asrning 20-30-yillaridagi sovet maktablari maktab ta'limi tizimini tubdan qayta qurishning turli modellarini sinab ko'rishga, aholini turli metodlar bilan savodini chiqarishga, umuman olganda yangi sovet avlodini shakllantirishga qaratilgan edi.

Mamlakatimizda umumta'lim maktablarini, xususan, tarix ta'lim tizimini shakllantirish bo'yicha mayjud tajribaga to'xtalib o'tish dolzarb muammodir. Biz maorif sohasida sovet Rossiysi tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan xulosa chiqarib, kelajakda bu kamchiliklarni bartaraf qilishimiz darkor.

Ayni paytda tarix fanida qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan 1920-30-yillarda respublikamizda xalq ta'lifi tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, o'sha murakkab davrda milliy ta'lif tizimidagi islohotlarni har tomonlama tahlil etish zarur.

Zero aynan shu davrda totalitar g'oya va keskin sinfiy nuqtai nazarga asoslangan ta'lifning sovet modeliga asos solindi. Bu muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzuni o'rganish O'zbekiston tarixi fanidagi o'ziga hos bo'shlqn to'ldirishga yordam beradi. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lif tizimini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarda milliy maorif tizimi tarixini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur ishdagi asosiy adabiyyotlarni ikki guruhgaga bo'lish mumkin. Birinchisi sovet davrida yaratilgan adabiyyotlar va ikkinchisi bu arxiv materiallari. Sovet davrida yozilgan adabiyyotlardan A.Murodxo'jaev tahriri ostida nashr qilingan O'zbekiston SSRda xalq maorifi (1924-1945); Akmal Ikromovning "Uch jildlik tanlangan asarlar . II jild." Maktab qurilishi masalalari: 1928 yil 4 mayda O'zbekiston KP (b) MK targ'ibot bo'limida xalq maorifiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi; O'zSSR MXK maktablar boshqarmasi tahriri ostida nashr qilingan "Boshlang'ich maktab programmalar" kabi adabiyyotlardan foydalanildi. Bundan tashqari Toshpo'latov T, G'afforov Y. "Tarix o'qitish metodikasi" kabi metodik qo'llanmalar ham shular jumlasiga kiradi.

Biz tadqiq qilgan mavzuga oid asosiy manba bu arxiv materiallari hisoblanadi. Ishda asosan O'z MA ning R-2748 fondining 1-ro'yxat 1074-yig'ma jildida berilgan "Statya Inoyatov - O stabilnoy programmi i uchubniki po istorii" va O'zbekiston Milliy arxivi (OzMA), R-2748-fond. 1-ro'yxat 1070-ish "Doklad Asimov M. Об итогах 1936-1937 Учебного года по истории 6 школах Уз ССР" nomli hujjatlariga tayanib ko'plab yangi ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur mavzuda o'rganilayotgan ilmiy maqolada ma'lumotlarni tizimlashtirish, muammolarni kompleks umumlashtirish, tahlil va davrlashtirish, tarixiylik, xolislik tamoyillari kabilar, shuningdek, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan ham keng foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda RSFSR tarkibiga kirgan Turkiston o'lkasining partiya va sovet organlari xalq maorifi tizimini qayta tashkil etishda sovet davlatining ta'lif va tarbiya ishlarini cherkov tasarrufidan chiqarish va davlat muassasalari ixtiyoriga o'tkazish, ta'lif sohasida tabaqaviy va milliy cheklashlarni bartaraf etish, o'g'il bolalar va qizlarni birgalikda o'qitish kabi ko'rsatmalariga amal qildilar. 1919-yilda bo'lib o'tgan RKP (b) ning VIII syezdida partianing yangi programmasi (dasturi) qabul qilinib, unda maktabni burjuaziya hukmronligi quroldan kommunistik jamiyat qurish quroliga aylantirish, 17 yoshgacha bo'lgan barcha o'g'il va qiz bolalarga umumi, tekin, majburiy va politexnik ta'lif berish, ta'lifni ijtimoiy foydali mehnat bilan uzviy ravishda bog'lash zarurligi ta'kidlangan edi.

1917-yildagi Oktabr to'ntarishidan keyin Turkiston ASSRda yangi sovet maktablari ochildi va ularning dasturiga tarix fani kiritildi. Lekin Turkistonda sovet maktablarini tashkil etish va ularning faoliyatini yo'nga qo'yish osonlikcha kechmadidi. Avvalambor, sovet hokimiyatining dastlabki yillarda mavjud bo'lgan iqtisodiy qiyinchiliklar hamda o'lkada boshlanib ketgan fuqarolar urushi va istiqolchilik harakati tufayli hukumat bu maktablarni muntazam ravishda mablag' bilan ta'minlay olmadi. Ko'p maktablar o'qituvchilarning yetishmasligi yoki ularga o'z vaqtida maosh to'lanmaganligi bois amalda faoliyat ko'rsatmadidi. Ikkinchidan, yangi ochilgan sovet maktablarining aksariyati boshlang'ich maktablar bo'lib, ularda tarix fani o'tilmas edi. Tarix alohida predmet sifatida yetti yillik va o'rta maktablarda o'qitilgan, ammo sovet hokimiyatining dastlabki yillarda bunday maktablarning soni ko'p bo'lmagan. Uchinchidan, sovet maktabi kommunistik g'oya va dahriylik zaminida qurilgan edi. Shuning uchun islam diniga e'tiqod qilgan aksariyat mahalliy aholi o'z farzandlarini an'anaviy ta'lif muassasalari, ya'ni eski musulmon maktablarida o'qitishni afzal ko'rardi. 1920-yilda Munavvar Qori Abdurashidxonov eski diniy maktablarni zamon talabiga mos ravishda isloq qilish va ularni yangi sovet maorif tizimiga kiritishni taklif etdi. Ammo sovet hukumati bu taklifni ham qabul qilmadi. Shunga qaramay, eski maktablar O'zbekistonda 1928-yilga qadar o'z faoliyatini davom ettirdi" [1:85].

Mazkur ko'rsatmalarga binoan, TASSR partiya va sovet tashkilotlari yangi maorif tizimini barpo etishda bolalar ona tilida o'qitiladigan mehnat maktablarin tashkil etishga asosiy e'tibor qaratdilar. Ammo maorif tizimini rivojlantirish og'ir sharoitda kechdi: maktablar uchun binolar yetishmasdi, ona tilida darslik va o'quv qo'llanmalar deyarli yo'q edi, o'qituvchi kadrlar nihoyatda oz edi.

TARIX

Mavjud qiyinchiliklardan qat'iy nazar, qadam-baqadam yangi maktablarni tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yishga kirishildi. Bu ishga milliy ziyolilarning eng peshqadam namoyandalari jalb etildi. Ular orasida Sadriddin Ayniy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Toshmuhammad Qoriniyoziy va boshqalar bor edi. Ular yangi sovet maktablarini barpo etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qildilar.

Eski maktablarning xalq nazarida obro'si qolmadi va 1928-yilda so'nggi eski maktab ham yo'qolib ketdi. Bizning fikrimizcha, ularning barham topishiga, bir tomonidan, odamlar o'z bolasini eski maktablarga bermay qo'yanligi, ikkinchi tomondan esa, sovet hokimiyatining ma'muriy usullar bilan ularni yopganligi sabab bo'ldi. Maktablar tobora ko'paydi. 1924/1925-va 1928/1929-o'quv yillari orasida respublikada har yili o'rta hisob bilan 287 tadan maktab ochilib turdi. O'uchilar soni 1914-yilga qaraganda 9,8 marta ko'paydi[7:12].

Akmal Ikromov 1928-yil 4-mayda O'zbekiston KP (b) MK targ'ibot bo'limida xalq maorifiga bag'ishlangan yig'ilishda 1928/29-o'quv yilida eski uslubdagi maktablarni to'liq tugatish, eski uslubdagi maktablarni tugatish bilan bir qatorda isloh qilingan maktablarni ham tugatish masalasini qo'yish kerakligini aytib o'tgandi [6:403].

O'zSSR tashkil topgandan so'ng xalq maorifi bobida ancha islohotlar o'tkazildi; dehqon yoshlari maktablari ochilib, bular qishloqda ommaviy maktabga aylandi. 1928-yilda arab alifbosи o'rniga lotinlashtirilgan alifbo qabul qilindi; O'zbekistonning Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarida xotin-qizlar uchun alohida maktablar ochildi.

1932-33-o'quv yilida o'zbek maktablarida tarix fani uchun umumiyligi o'quv soati 360 soatni tashkil etgan[3:1]. Bunda o'quvchilarga tarix fani haqida tushuncha berishdan boshlab, Turkistondagi mustamlakachilik tuzumi, Oktabr to'ntarilishi va Sovetlarning hokimiyat tebasiga kelishi, sotsializm haqida tushunchalar berilgan.

Sho'rolar hukumatining 1932-yil 25-avgustda «Boshlang'ich va o'rta maktablardagi o'quv dasturlari va rejimi haqida» chiqargan qarori umuman tarix fanini o'qitishni takomillashtirishda yangi, aytish mumkin o'sha davr talabining zaruratlaridan kelib chiqqan tarixiy hujjat bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Mazkur qarorda maktabda o'rganiladigan ijtimoiy fanlar dasturiga tarixiy nuqtai nazardan qarashni yanada takomillashtirish, tarix, ijtimoiyot fanlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda mahalliy materiallardan keng foydalanish zarurligini e'tiborga olish, shu bilan birga o'quvchilarga tushunarli tarixiy materiallarni puxta tanlash, ijtimoiyot fanlarining asosiy bo'lim hamda mavzularini zarur asosli materiallar bilan tarixiy ekskursiya va taqqoslash materiallari bilan ta'minlash; — ijtimoiyot va tarix fanlaridan tuzilgan dasturlarda SSSR xalqlarining milliy madaniyatiga, ularning adabiyotiga, san'atiga, tarixiy taraqqiyotiga oid eng muhim bilimlarni, shuningdek SSSR tarkibiga kiradigan ulkalarni o'rganish jarayonida aniqlangan tarixiy bilimlarga doir elementlar, ya'ni har bir o'lkaning tabiiy xususiyati, sanoati, tarixiy yodgorliklari, qishloq; xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, madaniyati va hakazolarni kiritish zarur» ligi alohida ko'rsatilgan edi[8:19].

Ma'lumki, partiya va hukumat maktablarimizda tarix kursini o'qitishga katta ahamiyat bergen. 1934-yil 16-may Butunittofq kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashi maktablarda fuqarolik tarixini o'qitish to'g'risida qaror chiqardi, unda tarixni o'qitishning qoniqarsizligi ta'kidlandi. Ushbu qaror tarix o'qituvchilariga sovetcha maktablarda tarixni o'qitishda yuzaga kelgan asosiy kamchiliklarni bartaraf etishning aniq usullarini ko'rsatdi[3:2].

1934-1937-yillarda maktablarda tarix va jamiyatshunoslik fanlarini o'qitish katta qiyinchiliklar bilan kechdi. O'qituvchilar darsliklarsiz va doimiy dasturlarsiz, eng og'ir kadrlar "ochligi" sharoitida ishlashga majbur bo'ldi. Tarix fanini o'qitadigan o'quvchilar hech qanday tayyorlarliklarsiz tayinlandi. Darsliklardagi yetishmovchiliklar sababli maktablarda o'qituvchilar qanday ma'lumot topsa o'sha bo'yicha o'qitib ketaveragan[3:6].

Hukumat qarorlarida tarix fanidan dars beruvchi o'qituvchi kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga e'tibor qaratildi. 1934-yil-7-iyunda RSFSR maorif xalq komissarligi tomonidan "To'liq bo'limgan o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlari tarix o'qituvchilarini qayta tayyorlash to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Moskva davlat universitetida tarix o'qituvchilarini uchun bir yillik malaka oshirish kurslari tashkil etildi. 1936-yilda RSFSRning ta'lim xalq komissarligi huzurida o'rta maktab tarix o'qituvchilarini uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

O'qituvchilar boshlang'ich maktabda SSSR tarixini o'qitishda professor Shestakov tahriri ostida chiqqan "SSSR tarixinining qisqa kursi" kitobidan foydalanishgan. Ushbu kitob VKP(b) Markaziy Komitetining bevosita homiyligi ostida chiqarilgan. Kitobdan asosan boshlang'ich maktab

o'quvchilarining III va IV sinflari uchun darslik sifatida foydalaniilgan. Davr pedagogikasi talabidan kelib chiqib, o'qituvchilardan faqatgina darslikda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha tarzda N.E.Baumannning qanday o'ldirilganligi va 1917-yilda Leninning Rossiyaga qanday kelganligi kabi darslikda bo'limgan boshqa talay ma'lumotlarni ham berib borishi kerakligi aytib o'tilgan[5:42].

Boshlag'ich mакtabda SSSR tarixi kursini o'tish ikki yilga mo'lljalgan edi. III sinflarda tarix darsiga 40 saat belgilangan bo'lib , bu sinfda o'quvchilar kursning boshidan boshlab to Pyotr I gacha bo'lgan davr tarixini o'rganganlar. IV sinflarda esa tarix darsiga bir yil ichida 80 saat ajratilgan bo'lib, bu sinfda o'quvchilar Pyotr I dan boshlab kursining oxirigacha yetkazishlari kerak bo'lgan.

Tarix fanidan tashqari ijtimoiy fan ham o'qitilib, bu fan uchun asosiy darslik B.Leviton va M.Ovsyannikovlar tomonidan tuzilgan "Ictimaiyat" kitobi bo'lgan. Ushbu darslik asosida 95 saat dars o'tilgan. Dasturda ko'rsatilgan 95 saat dars asosan 5 ta mavzuga bo'lingan. Asosiy e'tibor kommunistik partiya faoliyatiga, 1917-yilgi inqilobga, sotsializmga, qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda qayta qurish hamda VKP(b) tarixi o'rganishga qaratilgan edi [2:4].

Ushbu fan dasturini tuzishdagi "yetarli yoritilmagan" jihatlaridan biri 1905-1907-yillardagi inqilob jarayonoda paydo bo'lgan Sovetlarga kim ranamolik qilganligi; inqilob paytida kimning fikri bilan sovet g'oyasi paydo bo'lganligi, bundan tashqari, Vaqtli hukumat tepasida o'tirgan kimlardan iborat ekanligi haqida aniq misollar yo'qligini sanab o'tishgan [4:182].

XULOSA

O'zbekiston SSRda maktab ta'lif tizimini tashkil etilishi, maktab ta'lifimida tarix fanining o'rganish borasida quyidagi tahsil va xulosalarga asos bo'ldi:

Sovet hukumati dastlabki davrda davlat darajasida amalga oshirilgan islohotlarini ta'lif sohasiga to'g'ridan-to'g'ri joriy qildi. Ushbu siyosatdan siyosiy maqsadlar ko'zlangan bo'lib, tashkil etilgan sovet ta'lifi orqali butun aholini qamrab olish va o'quv yurtlari orqali sotsialistik tizimni targ'ib qilish edi. Bu Turkistondagi mayjud an'anaviy ta'lif tizimini butunlay falaj qildi.

O'quv tarrbiya ishlari qanchalik siyosatlashtirilmasin, sovet maktablarining moddiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Darsliklar, o'quv qurollari, xususan, qalam, siyoh, daftar taqchil edi. Bundan tashqari bolsheviklarning ta'lif siyosatini tezlik bilan isloq qilish davrida mahalliy kadrlarning yetishmasligi ham muammoni yanada jiddiylashtirdi. Ayni damda o'quv darsliklari takomilashtirilmagandi. Bundan tashqari mutlaqo yangi bo'lgan bu tizim mahalliy xalq bolalari orasida qiyinchilik bilan qabul qilindi. O'quvchilar intizomining pastligi o'quv ishlarini maromida olib borishga halal berardi. Sovet hukumati ta'lif sohasidagi barcha erkinliklarni bekor qilib, maktab va oliy ta'lif sohasini ham totalitar tizimga bog'ladi. Bu esa ta'lifni rivojlanmay qolishiga sabab bo'ldi.

Xalq ta'lifi o'quv dasturlari butunlay markazga bog'lanib, milliy an'analarga e'tibor berilmadi. Milliy dastur tuzish va uni amalga oshirishga harakat qilgan milliy taraqqiyatvarlar qatag'on siyosatiga uchradi.

Maktablardagi tarix fanining asosiy g'oyasi aynan sovetlarning qarashlari fikrlarini qo'llab quvvatlashga, partiya siyosatini og'ishmay bajaradigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan edi.

Mana shulardan kelib chiqib ushbu davrdagi ta'lif tizimidagi islohotlar kutilganidek natija bermagini ko'rish mumkin. Biz ushbu tadqiqot ishimiz orqali sovet davridagi ta'lifning bir tomonlamalik va noxoloslik asosida yuritgan siyosati haqida so'z yuritdik. Bu esa bizga kelajakda tarixiy ongni tubdan tozalashda o'tmishtajribasidan kelib chiqib yangi xulosalar chiqarish darkorligini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arslonzoda R. O'zbekistonda maktab tarix ta'lifi tizimining shakllanishi// FarDU xabarları. 2021. №5.
2. O'zbekiston Milliy arxivi (OzMA), R-2748-fond. 1-ro'yuxat 1074-ish, 9-varoq. "Статья Иноятов "О стабильной программу и учебнике по истории"
3. O'zbekiston Milliy arxivi (OzMA), R-2748-fond. 1-ro'yuxat 1070-ish. "Доклад Асимов М. Об итогах 1936-1937 учебного года по истории в школах Уз ССР"
4. Qodirova R.M. 1936-1937-yillarda O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining o'rganilishi (M.Asimov hisobot materiallari asosida) // O'tmishtga nazar. 2022. 3-maxsus son. – B. 181-184.
5. Бошлангич мактаб программалари. ЎзССР МХК мактаблар башкармаси таҳрири остида – Тошкент: Учпедгиз, 1939. – 56 б
6. Икромов А. Уч жилдлик танланган асарлар . II жилд. Мактаб қурилиши масалалари: 1928 йил 4 майда Ўзбекистон КП (б) МК тарбибот бўлимида халқ маорифига бағишлиланган йиғилишдаги нутқи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – Б 497
7. Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924-1945) / А.Муродхўжаев таҳрири остида. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 126 б.
8. Тошпўлатов Т, Фаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Turon-Iqbol. 2010. – B. 327

